

**ICHKILIKBOZLIK, KASHANDALIK VA GIYOHVANDLIK YOSHLARNING AQLIY
VA JISMONIY KAMOLOTI KUSHANDASI**

Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich

*Farg‘ona davlat universiteti matematika-informatika fakulteti yoshlar masalalari va
ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari.*

Qurbanova Go`zal Maxsitaliyevna

Farg‘ona davlat universiteti matematika-informatika fakulteti tyutori.

1. Gmail: oerkaboyev@gmail.com

Dunyoning ayrim mamlakatlarida ichkilikbozlik, kashandalik, zaharvandlik va giyohvandlik kabi millat genofondiga, inson surriyodiga, nasl-nasabiga o‘ta salbiy ta’sir etuvchi kasalliklar, zararli odatlar, yoshlar o‘rtasida ko`payib bormoqda.

Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, odamlar ongiga salomatlikni saqlash o‘z qo‘llarida ekanligini singdirish, alkogol va tamaki mahsulotlarini, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste’mol qilishni huquqiy jihatdan, tegishli qonunlar bilan cheklash orqali hal etishni hayotning o‘zi, qolaversa, u yoki bu mamlakatdagi qonunchilik tajribasi yaqqol ko`rsatmoqda.

Spirtli ichimliklarning inson xromosomalariga (inson pushtiga) salbiy, ya’ni mutagen ta’siri, uning oqibatida odam homilasining turli nuqsonlar bilan shakllanishi hamda og`ir darajali tug`ma nogiron bolalar tug`ilishi fanda allaqachon isbotlangan.

Tibbiyot ilmining sultonii, buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino “sharob (spirtli ichimlik)ni zaharning bir turi”, deb bejiz ta’riflamagan.

Spirtli ichimlikning yosh organizmiga, ayniqsa, onalar organizmiga, homilaga va emizikli go`dak organizmiga salbiy ta’siri haqida bugungi kun odamlari to`liq tasavvurga egalar. Xuddi shuningdek, tamaki mahsulotlarini muntazam ravishda iste’mol qilish, ya’ni kashandalik dunyo aholisi o‘rtasidagi o`lim holatlarini keltirib chiqaruvchi ikkinchi sabab ekanligi bugungi kunda isbotlangan.

Jahon sog‘lijni saqlash tashkilotining rasmiy ma’lumotlariga ko`ra, hozirgi vaqtida yer sharining 1,3 milliard aholisi kashandalikka duchor bo`lgan. Muntazam ravishda tamaki mahsulotlarini iste’mol qilish, ya’ni unga ruju qo`yish, oddiy aytganda, kashandalik, insonning jismonan va ruhiy fiziologik (psixofiziologik) jihatdan unga o‘rganib qolayotgani giyohvandlikning eng og`ir shakllaridan biri, deb rasman tan olingan.

Jahonda katta yoshlilar o`limining 12 foizi kashandalik — tamaki mahsulotlarining og`ir oqibatlari tufayli ro`y bermoqda va buning natijasida har yili 5,4 million odam olamdan ko`z yummoqda. Kishini larzaga soladigan yana bir fakt shuki, har 6,5 daqiqada 1 nafar inson tamaki chekish bilan bog`liq bo`lgan kasallik tufayli bu dunyoni tark etmoqda. Agar shu holat davom etadigan bo`lsa, 2030 yilga kelib, faqat tamaki sababli har yili 8,3 million nafar insonning olamdan ko`z yumishi mumkinligi

(bu ko`rsatkich, umuman o`lim ko`rsatkichlarining 10 foizini tashkil qiladi) bashorat qilinmoqda.

Tamaki tutuni tarkibida 7 mingdan ortiq komponentlar bo`lib, ulardan aksariyati farmakologik jihatdan juda faol, zaharli, mutagen va kantserogen moddalar ekanligi aniqlangan.

Jahon sog`liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko`ra, o`pka saratoni kasalligi ko`rsatkichlari dunyoda o'sib borish tendentsiyasiga ega bo`lib, ushbu kasallikka chalinganlarning 98,96 foizi tamaki mahsulotlarini iste'mol qiluvchilardir.

Eng tashvishlisi shundaki, chekmaydigan odamlar chekadiganlar atrofida “passiv chekuvchilar”ga aylanadi, ular orasida bolalar va ayollar kam emas. Tamaki tutunidagi zaharli moddalarning aynan “passiv chekuvchilar” organizmiga salbiy ta'siri kuchliroq ekanligi zamonaviy tibbiyotda allaqachon isbotlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. О.М. Эркабоев. Наука в системе высших школ Республики Узбекистан. Архивариус. с 24-27
2. E.O. Muhammadjonovich. Determination of the physical status of secondary school students through sociological research. Berlin Studies Transnational Journal of Science and 2022. 1-5
3. O.Erkaboyev, O. G'aniyev. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARNING “OMMAVIY MADANIYAT” TAHDIDIGA QARSHI KURASHI. INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. 2022.12.25
4. O.Erkaboyev, I. Mamatqulov. Ma'naviy tahdid - yosh avlod kelajagiga tahdid. INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. 2022.12.25